

MAKTABGACHA YOSH DAVRI PSIXOFIZIOLOGIYASI VA SHAXS SHAKLLANISHIDA MULOQOTNING O'RNI

ADPI katta o'qituvchisi Vaxabova O'g'iloy
1-kurs talabasi Abduhakimova Shahnoza

**"Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har
qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega "(SH.Mirziyoyev).**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davrida psixofiziologik o'zgarishlar hamda, ushbu davrda shaxs shakllanishida muloqotning tutgan o'ri, oiladagi tarbiyaning ahamiyati haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье говорится о психофизиологических изменениях дошкольного возраста, роли общения в формировании личности, значении воспитания в семье.

Abstract: This article talks about the psychophysiological changes of the preschool age, the role of communication in the formation of personality, and the importance of upbringing in the family.

Kalit so'zlar : Imitatsiya, yosh davri, inqiroz, o'yin faoliyati, taqlidchanlik, ontogenez, tarbiya.

Yosh davrlarining har birini o'ziga xos xususiyatlari bo'lganidek maktabgacha yosh davri ham o'z tarifiga ega. Rus pedagogi Lestgafning fikricha insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki bu davrda bolalarda xarakterning asoslari yuzaga keladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning ko'zga tashlanib turadigan xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlidchanligidir.[1.(38)]. Bu yosh davri bolalari o'ta qiziquvchan bo'lishadi, ularda "bu nima" degan savol o'rnida "bu qanday bo'ladi" savoli paydo bo'ladi. Ontogenezda 3yoshdan 7yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha yosh davriga kiritiladi

Maktabgacha yosh davri fiziologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, bu davrga kelib bosh miya hajmi chaqaloqlik davridan 3 barobar ortishi kuzatiladi. 1100-1200 g ga yetib qoladi. Suyaklari tog'aysimon bo'ladi, muskullari hali mustahkam bo'lishiga qaramay juda harakatchan bo'ladi. Maktabgacha yosh davrida bolaning yuragi hajmi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar katta, lekin, muskullari to'liq rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli yurak bir marta qisqarganda organizm uchun kerakli qonni chiqarib berolmaydi, shuning uchun bola yuragi kattalarnikidan tez uradi. Yurakning tez urishi hisobiga bolalar qon bosimi kattalarnikidan biroz yuqori bo'ladi. Oyoqlari gavdasiga nisbatan uzunroq bo'lib, bola gavdasida nomutanosiblik sezadi.

Maktabgacha yosh davrida bola psixikasida bir qancha o'zgarishlar bo'ladi. Jumladan, uning ehtiyojlari va qiziqishlari ortib boradi. Uning qiziqishlari yangi malumot o'rganishdan ko'ra uzi bilgan narsalarni chuqurroq anglashga qaratilgan bo'ladi. Atrofdagilar do'stlar bilan muloqotda axloq meyorlari, ijobiy hamda salbiy munosabatlarni anglab boradi. Nutq jadallik bilan rivojlanadi.

Atoqli rus psixologi L.S.Vigotskiy bu yoshdagi inqirozni 7yosh inqirozi deb atagan va bola xulq-atvori va xarakteridagi o'zgarishlarni ko'rsatib o'tgan. [2 (103)]. Bolaning xulq-atvorida bolalarcha bevositalik yo'qoladi. Inqiroz belgisi sifatida jarohatlaydigan kechinmalardan himoya qilish funksiyasini bajaradigan qiyshanglash, qiliq qilish, masxarabozlik qilishda namoyon bo'ladi. Kattalar ish buyurganda eshtmaganga olish, aytilgan ishni atay kechiktirib bajarish, yoki qilishdan bosh tortish inqirozning salbiy belgilari hisoblanadi. Kattalar bilan muloqotga kirishish, bilisha bo'lgan qiziqishning ortishi kabilar misol bo'ladi.

7 yosh inqirozini yengishda bolaga ko’rsatiladigan yordamning asosiy shakllar bu talablar sababini asoslashga urinish, berilgan topshiriqni bajarish muhimligini eslatib turish, bu vazifani bola bajara olishiga ishonch bildirish va boshqalar. Maktabgacha yosh davrida emotional-irodaviy sifatlar rivojlanadi. Bola qurbi yetmaydigan ishlarni ham bajarib ko’rgisi keladi. Misol uchun, onasi ovqat pishirayotgan bo’lsa, uzi mustaqil tayyorlab ko’rgisi, avtobus haydovchisiga havas qilib avtobus haydab ko’rgisi keladi vahokazo. Bu davrda psixik jihatdan ancha qaysar, o’zini aytganini qiladigan, maqto’v eshtishni kutadigan, lidrligni davo qiladigan bo’ladi.

Maktabgacha yosh davrida shaxs shakllanishi uchun o’yinning ahamiyati katta hisoblanadi. O’yin tushunchasiga yuzaki qarashlik noto’ri. Bunda o’yin orqali bola bilan ota onasi yoki o’qituvchisi muloqotga kirishadi. Bola so’z bilan ifodalab berolmeydigan fikrini o’yinlarda namoyon qiladi. Zerikarli, bir xil oxangda yetkizilgan axborotga bola etiborini qaratish qiyin. Aynan biz tashkil qiladigan mantiqiy, kreativ fikirlashga undaydigan o’yinlar natijasida bolada tafakkur shakllanadi, nutqi o’sadi, va natijada jamiyatimizga kerakli shaxs bo’lib shakllanadi

Bolaga ertak aytib berilganda bola nisbatan kam tushuncha oladi, agarda, tarbiyachi magnitli doskaga aynan usha ertak asosida tayyorlangan rasmlarni ketma-ketlikda joylashtirish so’ralganda bolada ko’proq tushuncha hosil bo’ladi, bolani fikrlashga undaydi.

Shaxsni shakllantirish jarayoni ko’p jihatdan katta yoshli kishilar bolalarning birgalikdagi faoliyatini qanchalik moxirlik bilan tashkil eta olishlariga bog’liq.

Maktabgacha yosh davridagi bolalar shaxshini rivojlantirishda nutqning ahamiyati haqida aytib o’tildi. Ayni shu davrda bola ulg’ayayotgan oila muhiti, ota -onalardan tarbiya natijasida bola kamolotining ilk poydevori shakllanadi. Mana shu poydevor mustahkam qurilmasa, hozirgi, "ijtimoiy tarmoqlar jozibadorligi" tavrda o’sib kelayotgan yosh avlod ongida paydo bo’lgan bo’shliq "zararli sahifa"lar joy oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.G. Davletshin, Sh. Do’stmuhammedova, M. Mavlonov, S. To’ychiyev "Yosh davrlari va pedagogik psixologiya". Toshkent, 2004
2. Анатолий Андреевич Алексеев, Ирина Анатольевна Валентина Ниловна Бабий и др. Перевод с издания "Просвещение", 1987 г. Тошкент 3
3. O’Gilxontolibjonovna, V. (2023). AXBOROT MUHITI YOSHLAR IJTIMOIIY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA’SIRINI TADQIQ ETISHNING METODIK JIHATLARI. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22.